



XORIYIY TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH TENDENSIYASI

Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li

“Axborot texnologiyalari” kafedrası assistenti

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, (tel: 93-340-72-03,

e-mail: shahbozrajaboyev@gmail.com).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10117635>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 8-noyabr 2023 yil

Ma'qullandi: 10-noyabr 2023 yil

Nashr qilindi: 12-noyabr 2023 yil

KEYWORDS

ta'lim, o'qitish, axborot, metod, axborot texnologiyalari, o'rgatuvchi dasturlar, ilg'or texnologiyalar, tillarni o'qitish.

ABSTRACT

Ushbu tezisda xorijiy tillarni o'qitish uchun tayyorlanadigan materiallarni qaysi dasturiy vositalar yordamida tayyorlash mumkin ekanligi yoritib berilgan. Bu orqali o'quvchining eslab qolish orqali o'zlashtirish ko'rsatgichi oshishi asosiy maqsad sifatida qaraladi. O'qituvchi uchun esa darsda o'quvchilar bilan ishlashi osonlashadi va bir vaqtda ilovada berilgan topshiriqlar orqali ko'pchilikni baholashga erishiladi..

Bugungi kunda axborot texnologiyalarning yangilanishi, tarmoq texnologiyalarini rivojlanishi barcha sohalari singari xorijiy tillarni o'qitish sohasida ham katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ma'lumotlarni uzatish tizimi asosida o'qitishni tashkil etishga turli yondashuvlar mavjud. Butun dunyo kompyuter tarmog'i tizimiga asoslangan turli kompyuterli multimedia texnologiyalarini va ilg'or o'qitish texnologiyalarini umumlashtiruvchi yangicha o'qitish virtual muassasalarni zamonaviy informatsion jamiyatda axborot va bilimlarning tez sur'atlarda o'sishi masalasi yechimi sari olib boruvchi yo'l sifatida qarash o'rinli.

O'qitish muxitini tashkil etishda katta etibor o'quvchining tizim bilan munosabatini muvofiqlashtiruvchi qulay vositalarini ishlab chiqish, shu qatorda o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonni vizuallashtirish vositalarini ishlab chiqish lozim. Bu yerda vizuallashtirish tushunchasi ostida qo'yilayotgan o'qitish masalarini vizual tarzda akslantirish lozim, ya'ni masala maksimum hayotga yaqinlashtirilgan holatga erishilishi tushuniladi. Bu vositalarni o'quvchi (foydalanuvchi) interfeysi nomi bilan umumlashtirish mumkin.

MUHOKAMA

Ilg'or axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan tarzda qilingan elektron qo'llanmalar an'anaviy bosma o'quv qo'llanmalari o'rnini bosish barobarida o'qituvchiga aloqador masalalarni ham yechish imkoniyatiga ega. Matnni muloqot yordamida immitatsiyalab sintezlash, multimedia effektlari bilan boyitish orqali bilim oluvchi bilim olishida qulayliklar yaratuvchi pedagogik kompleks hosil qilinadi.

Bundan tashqari elektron qo'llanmalar bilim oluvchi uchun qulaylik – uning xoxlagan tezlik bo'yicha dars tashkil etiladi. Shu qatorda tizim bilim oluvchining tayyorgarligini, o'qishda ulgurish darajasini qadamba-qadam nazoratini amalga oshirib boradi. Bunday nazorat o'quvchi uchungina zarur bo'lib qolmay, balki tizim uchun bilim oluvchi modelini qurish imkonini

beradi. Bu jarayonda foydalanuvchi o'zi kompyuterda ishlashi jarayonida o'zi erishayotgan yutuq va kamchiliklarni kuzatib turadi.

O'qitish muhitini tashkil etishda katta etibor o'quvchining tizim bilan munosabatini muvofiqlashtiruvchi qulay vositalarini ishlab chiqish, shu qatorda o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonni vizuallashtirish vositalarini ishlab chiqish lozim. Bu yerda vizuallashtirish tushunchasi ostida qo'yilayotgan o'qitish masalarini vizual tarzda akslantirish lozim, ya'ni masala maksimum hayotga yaqinlashtirilgan holatga erishilishi tushuniladi. Bu vositalarni o'quvchi (foydalanuvchi) interfeysi nomi bilan umumlashtirish mumkin.

TAVSIYALAR

O'qitish dasturlari (avtomatik o'qitish tizimlari ham, oddiy o'qitish tizimlari ham, elektron o'quv qo'llanmalari ham) quyidagi pedagogik maqsadlarni amalga oshirish uchun hizmat qiladi:

1. O'quv materialini ko'rsatish: o'quvchiga ma'lum shaklda tartiblangan matnli, grafik, audio va video materiallar havola qilinadi. Ushbu ko'rinishdagi dasturlar ko'rgazmali, shu bilan birga kompyuterlashtirilgan ma'ruza va elektron matnli qo'llanmalar deb yuritiladi;
2. Test va diagnostika qilish: o'quvchining xatti-xarakati aniqlanishi uchun tekshiruvdan o'tkaziladi. O'quvchi xatti-xarakati tushunchasi ostida uning joriy bilimining chuqurligi, malaka va ko'nikma hosil qilish darajasi tushinilishi lozim;
3. Mashqlarni bajarish: o'quvchi biror ish bajarish jarayonida (bu ish - masala yechish, laboratoriya ishlari va hokazolar) bilim, malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchi chegaralangan vaqtda tekshiriladi va qo'yilgan maqsadga yetganligi darajasi aniqlanadi;
4. O'qitish: o'quvchi o'quv dasturi boshqaruvi ostida ma'lum fan sohasi bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qiladi, shu asnoda dastur o'z zimmasiga o'quv materialini namoyish qilish, uni egallanish darajasini nazorat qilish va o'quvchi hatolarini diagnostika qilishni oladi. Berilgan sinfga ta'luqli dasturlar:
 - a) ta'lim berish maqsadlarining mavjudligi;
 - b) o'quvchi bilan muloqot qilish ko'rinishini belgilovchi va maqsadga yetkazuvchi o'qitishning ba'zi uslublarini amalga oshirishi;
 - v) o'qitish, nazorat va diagnostika masalalarining kompleks yechimlari bilan xarakterlanadi.

Multimediali elektron qo'llanmalar turli toifali foydalanuvchilarning individual ta'lim olishini ta'minlaydi.

To'rt darajali bilim oluvchi modeli qo'llaniladi:

- lokal, bilim oluvchi tomonidan oxirgi bajarilgan vazifa ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan;
- joriy, o'zida joriy dars natijasi taxlilini mujassamlashtiruvchi;

- global, kurs bo'yicha o'quv va tarmoq uzellarini bosib o'tish ketma- ketligi natijalarini mujassamlashtiruv-chi;
- tekshiruv, aprior tekshiruv natijalarini mujassamlashtiruvchi.

Quyidagi dasturlar orqali ingliz tilini o'qitish bo'yicha electron darsliklar ishlab chiqish mumkin:



Adobe Flash (avvalgi Macromedia Flash yoki oddiy Flash)
- Adobe Systems kompaniyasidan veb -ilovalar yoki multimediali prezentatsiyalar yaratish uchun mo'ljallangan multimediali platforma. Bannerlar, animatsiyalar, o'yinlar yaratish, veb -sahifalarda video va audio ijro etish uchun ishlatiladi.

1986 yilda ushbu texnologiyadan foydalangan holda Fantavision dasturi chiqarildi. 1996 yilda FutureWave Macromedia tomonidan sotib olindi, uni FutureSplash Animatori Flash deb o'zgartirdi. Bu nom 2005 yilda Macromedia Adobe tomonidan sotib olinganidan keyin , Macromedia Flash rasman Adobe Flash deb nomlangan.



Prezi - bu PowerPoint kabi an'anaviy slaydlar yaratish dasturlariga muqobil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan taqdimot vositasi. Slaydlar o'rniga Prezi bitta katta qsim foydalanadi, bu bizga qsimlarning turli qismlarini siljitish va kattalashtirish hamda u erda keltirilgan g'oyalarni ta'kidlashga imkon beradi. Prezi matn, rasm va videolardan foydalanishni qo'llab -quvvatlaydi, shuningdek, yangi foydalanuvchilarning interfeysga ko'nikishiga yordam beradigan shablonlar to'plamini taqdim etadi.



CourseLab - bu elektron kurslarni ishlab chiqish dasturi va keng ko'lamlı o'quv vazifalarini amalga oshirish vositasi. CourseLab dasturiy mahsuloti foydalanish qulayligiga qaratilgan. Kursni tez ishlab chiqish (WYSIWYG) tamoyili, har qanday

uchun ob'ektlar, "nima ko'rsangiz, o'sha olasiz" interaktivlikni yaratish uchun tayyor echimlar.

iSpring Suite

Qulay dastur iSpring o'quv materiallarini tizimlashtirish, ularni raqamli formatga o'tkazish, test topshiriqlarini yaratish, korporativ treninglar va xodimlarni o'qitish uchun mo'ljallangan.

iSpring Suite sizga PowerPoint-da eLearning kurslarini yaratish va keyin ularni veb-formatda saqlash imkonini beradi. iSpring Suite-da ishlab chiqilgan materiallarni har qanday qurilmada ko'rish mumkin: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, iPad, iPhone, Android va Windows qurilmalari.



AutoPlay Media Studio dasturi yordamida tez dasturiy ta'minot ishlab chiqishni va'da qiladi. Bu menyular va avtomatik ijro etuvchi CD / DVD / USB utilitalaridan tortib o'yinlar va interaktiv multimedia ilovalarigacha - veb operatsiyalari, ma'lumotlar bazasi ulanishlari, video oqimlari va boshqalarni yaratish uchun juda mos keladi.

References:

1. Ahmadovich, R. A. ., Tulkinjonovna, T. N. ., & Shodiyevich, R. S. . (2023). Statistical Analysis of Word Formation by Affixation between Two Languages. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 213–218. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/150>
2. Tursinxanov Nurlan Mustafaevich, & Rajaboev Shakhboz. (2022). SYSTEM FOR ANALYZING AND PROCESSING DATA ON UNIVERSITY STAFF BASED ON A FUZZY CONTROLLER WITH A FIXED KNOWLEDGE BASE. Open Access Repository, 8(03), 16–21. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/9X7YF>

3. Rajaboyev, S. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida web-dizayn kursini flipgrid dasturining imkoniyatlaridan foydalanish.
4. Shodiyevich, Rajaboev Shahboz, Rajaboyev Shohzod Shodiyevich, and Usmonov Sunnatillo Berdiquil o'g'li. "ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES 4.6 (2023): 80-84.
5. Shodiyevich R. S., Shodiyevich R. S., Berdiquil o'g'li U. S. ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 80-84.
6. Ulugbekovich K. D. et al. Trends of Fast Development of the Service Sector in Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 35. – C. 554-563.
7. Shakhboz R. USING MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE BASED ON DISTANCE EDUCATION //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 7.
8. Shodiyevich, R. S., Shodiyevich, R. S., & o'g'li U. S. B. (2023). ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 4(6), 80-84. Retrieved from <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/475>
9. To'liqjanovna T. N., Shodiyevich R. S. Word Formation by Affixation //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 217-222.
10. Shahboz R., Sayidaxon T., Sheroz R. IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 518-520.
11. Shodiyevich R. S., Berdiquil o'g'li U. S., Shodiyevich R. S. The Process of Managing the Flow of Information, in the Example of Accounting //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 99-104.
12. To'liqjanovna T. N., Shodiyevich R. S. Word Formation by Affixation //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 217-222.
13. Ражабоев Ш. Ш. Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий.–2022 //Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch. – 2022.
14. Rajaboyev S. Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
15. Rajaboev S. S. Technologies of Using Multimedia Tools in Teaching Economic Sciences //Spanish Journal of Innovation and Integrity.
16. Ражабоев Ш. Ш. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ //ББК 65.29 я43 Т384. – 2022. – С. 54.

17. Ражабоев Ш. Ш. ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ЗЕЛЕНЫЙ СЕКТОР В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ
//ББК 65.05 П 78. – С. 596.



INNOVATIVE
ACADEMY